

Amir Temur davri tarixiy geografiyasi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Ravshanova Marjona Karimovna

marjonaravshanovna979@gmail.com

Tel: +998930893719

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Yusupova Muxlisa Nurali qizi

yusupovarlon3@gmail.com

Tel: +998952551803

Annotatsiya. Ushbu maqolani yozishdan maqsad Amir Temur davrini chuqur o'rganish uni manbalar orasida tadqiq qilishdir. Shuningdek bu maqolada Amir Temur davrida o'tkazilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy islohotlar va ular tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar to'g'risida va Amir Temur shaxsiyati to'g'risida ham alohida to'xtalib o'tilgan. Biz bilamizki Amir Temur nafaqat jangu-jadallarda yurgan shuningdek davlat boshqaruvini ham bir zayilda olib borgan hozir bu haqida birma-bir to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar. Amir Temur, Amir Husayn, Movarounnahr, Oltin O'rda, mo'g'illar, devonbegi, oliy devon, harbiy yurishlar, yetti vazirlik, ulus hokimlari

Аннотация: Целью написания данной статьи является углубленное изучение периода Амира Темура, его исследование среди источников. Также в данной статье основное внимание уделяется политическим, экономическим, социальным, культурным реформам, проведенным во времена Амира Темура и проведенным ими военным походам, а также личности Амира Темура. Мы знаем, что Амир Темура не только сражался в боях, но и управлял государством за один год.

Ключевые слова: Амир Темура, Амир Хусейн, Моваруннахр, Золотая Орда, монголы, деванбеги, верховный совет, военные походы, семь министерств, правители улусов..

Abstract. The purpose of writing this article is to study the period of Amir

Temur in depth, to research it among the sources. Also, this article focuses on the political, economic, social, cultural reforms carried out during the time of Amir Temur and the military campaigns carried out by them, as well as on the personality of Amir Temur. We know that Amir Temur not only fought in battles, but also managed the state in one year.

Key words. *Amir Temur, Amir Husayn, Movarounnahr, Golden Horde, Mongols, devanbegi, supreme council, military campaigns, seven ministries, governors of the ulus.*

Amir Temur 1336- yilning 9- aprelida Kesh shahri (hozirgi Shahrisabz hududida) Chig'atoy ulusida tug'ilgan. Otasi Amir Tarag'ay, onasi Takina Xotin. Turmush o'rtog'i O'ljay Turkon Og'a. Farzandlari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohruh Mirzo.

1360-1361- yillarda Mo'g'iliston hukmdori xoqon To'g'luq Temur Movarounnahrning ichki hayotiga raxna soladi. Uning bosqinchilik tadbirlari Movarounnahr hukmdorlarga ma'lum bo'lgandan keyin, ular sarosimaga tushib qolishgan. 1360-1370- yillarda Movarounnahr siyosiy hayotida Amir Temur bilan bir qatorda ta'sir o'tkazgan shaxslardan yana biri Amir Qozag'onning nabirasi Amir Husayn edi. Balx va uning atrofidagi yer-mulklar uning tasarrufida edi. 1361- yilda Temur Amir Husayn bilan yaqinlashib ikkala hokim birlashgan holda, mo'g'ul xonlariga qarshilik ko'rsatish imkoniga ega bo'ldilar. Vaqti kelib Movarounnahrni boshqarishni Tug'luq Temur o'z o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Mustaqil bo'lishga harakat qilib yurgan Temur yangi hukmdorga itoat etmadi. Buning oqibatida yangi ziddiyat yuzaga chiqdi. Amir Husayn bilan Amir Temurning bir - birlariga yaqinlashgan va yaxshi munosabatda bo'lgan davrlar 1361-1365- yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Temur malum qiyinchiliklarni ham boshidan kechiradi. Temur hayotida ro'y bergan va bir umrga unga tan jarohatini muhrlagan voqea 1362- yilda Siystonda ruy bergan. Amir Temur jang vaqtida o'ng qo'lini tirsagidan va o'ng oyog'idan kamon o'qi tegishidan qattiq jarohatlandi. Buning oqibatida u bir umir oqsoqlanib yuradi. Shu bois undan dahshatga tushgan dushmanlari Amir Temurni

hasad bilan „Temurlang” deb atashgan.[1]

1370- yilda Amir Temur Balxga yurish qilib, Amir Husaynni taslim qiladi. 1370- yilning 10- aprelida Amir Temur Movarounnahr hukmdori deb e'lon qilindi. Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib olgach, o'z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Avvalo 1370- yilning may oyida Samarqandga qaytib shaharni tiklaydi. Maxsus qo'shin tuzib, davlat chegaralarini kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'idagi yerlarni birlashtirib, o'ziga bo'ysundiradi. Mo'g'illar davrida Xorazm ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo'lgan Shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat shahri bo'lgan janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusiga bo'ysungan. 1371- yilda Amir Temur Xorazmga yurish qilib uni egallaydi. Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqlik hamda o'zaro nizolarga barham berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtiradi. Keyinroq Shibirg'on viloyati, Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oladi. Yigirma yil (1371-1390) mobaynida Amir Temur Mo'g'ilistonga yetti marta yurish qilib, mo'g'il hukmdorlari ustidan g'alaba qozondi. 1395- yilda Shimoliy Kavkazning Tarak daryosi bo'yida Amir Temur va Oltin O'rda xoni To'xtamishxon qo'shini o'rtasidagi jangda Amir Temur g'alaba qozonadi va Oltin O'rda hokimiyatiga chek qo'yiladi. 1381- yilda Hirot Saraxs, Jom shaharlari, keyinroq esa Eronning katta qismi Amir Temur hokimiyatiga bo'ysundiriladi. Uch yillik (1386-1388) harbiy yurishlar natijasida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi yerlar egallanadi. 1392-1396- yillardagi besh yillik urush davomida Amir Temur g'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egallaydi. 1398-1399- yillarda Amir Temur Hindistonga yurish qilib, bu hududni ham o'z tasarrufiga kiritadi. 1399-1404- yillardagi yetti yillik urush davrida esa Shomning Halab, Ko'mis, Baalbek, Damashq kabi shaharlari, Bag'dod hamda Turkiyaning katta qismini egallaydi. 1402- yilda Anqara yaqinidagi jangda Boyazid Yildrim qo'shini yakson qilinib, Kichik Osiyo ham Temur hokimiyatini tan oladi. Amir Temur 1405- yil 18- fevralda Xitoyga yurish vaqtida O'trorda vafot etgan.[2]

Markaziy davlat ma'muriyatini yettita vazirlik boshqargan. Ularning birinchisi Vaziri a'zam bo'lib, uning vazifasi oliy hukmdorini mamlakat va raiyat ahvoli haqida o'z vaqtida xabardor qilib turishdan iborat bo'lgan. Ikkinchisi (vaziri tavochi) harbiy ishlar, uchinchisi turli sabablar, asosan urush oqibatida egasiz qoldirilgan mol mulklar, sayyohlar va ziyoratchilar ishlari bo'yicha mutasaddilik qilgan. To'rtinchisi hukmdonig saroyiga oid bo'lgan ishlar bilan shug'ullangan. Yana uch vazir sarhad viloyatlariga tegishli ishlarni boshqargan. Yettita vazirning barchasi devonbegiga bo'ysungan. Markaziy hokimiyat idoralarida, ulus hokimiyatlari devonlardagi kabi, vazirlardan boshqa turli tabaqadagi amaldorlar bo'lgan. Ular, masalan shayxulislom, qozi ul-quzzod (oliy sudya), qoziye axdos (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi sudya), qozi askar (harbiy sudya), sadr A'zam (oliy sadr), vaqf mulklari mutasaddisi, dodhox (shikoyatlarni ko'ruvchi), eshikog'a (saroy vaziri), yasavul (hukmdorning shaxsiy buyruqlarni bajaruvchi), qalaqchi (xiroj miqdorini aniqlash majburiyati yuklatilgan amaldor), mutahassil (soliq va o'lpon yig'uvchi), tavochi (asosan qo'shinlarni to'plash ishiga ma'sul oliy amaldor), qorovulbegi, kutvol (qal'a komendanti), muhtasib (shariat qoidalari ijrosi hamda bozorlarda narx-navo tarozilar to'g'riligini tekshiruvchi mansabdor), voqeanavis (kundalik voqealarni yozib boruvchi), munshiy (shaxsiy kotib) va boshqalar. Karvon yo'llarida sardobasi bo'lgan maxsus bekatlar qurilgan, uni harbiy nazoratchi qo'riqlagan. Manbalarda Temur saroyida mavjud bo'lgan qabul marosimi haqida ham ma'lumot saqlanib qolgan. Jumladan, taxtning o'ng tomonida sayyidlar, qozilar, ulamolar, shayxlar o'tirga. Chap tomonida esa amir ul Umuro, beklarbegi, qo'shin amirlari, nuyonlar, ulus, tuman, qo'shin boshliqlarining joyi bo'lgan. Taxtning oldi tomonida devonbegi va vazirlar o'tirishgan. Taxt orqasida, uning o'ng tomonida o'g'lonlar va bahodirlar, chap tomonida esa qorovulbegilar o'tirishgan. Taxtning qarshisida qorovul amirlari, etagida esa ichkilar, yasavuli hos turgan. Taxtning o'ng va chap tomonida dodxohlar o'tirishgan.[3]

Amir Temurning davlatidagi siyosiy tuzumi haqidagi ma'lumotlar turli xil manbalarda turlicha ekan. Bulardan biri Z. Saidboboyevning kitobidir. Hozir bularga ham tuxtalib o'tamiz.

Amir Temur davlatining siyosiy tuzumi haqida gapiradigan bo'lsak, u o'z davlatini barpo qilishda o'tmishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalanadi. Mazkur davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra ko'pincha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Oliy devonda-ijroiya hokimiyatda bosh vazir, mulkchilik va soliq ishlari vazirligi, moliya vaziri turgan. Sarhadlar va mamlakatning boshruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lgan va devonbegiga hisobot berib turgan. Markaziy hokimiyat tizimida shayxulislom, qozikalon, qoziye axdos (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi qozi), qozi askar, sadr A'zam (vaqf mulklari mutasaddisi), dodxoh (shikoyatlarni ko'ruvchi), eshikog'a, saroy vaziri, yasavul (hukmdorning shaxsiy buyrug'ini bajaruvchi), qalaqchi (xiroj miqdorini aniqlovchi), muhassil (soliq undiruvchi), tavochi (asosiy qo'shinlarni to'plash ishiga ma'sul mutasaddi amaldor), qorovulbegi, qutvol (qal'abon), muhtasib (shariat qoidalari ijrosini bozor tartiblarini nazorat qiluvchi) va boshqalar bo'lgan.[4]

Butun asr davomida Movarounnahr va Xurosonda avvalgidek yer va mulkchilikning asosan to'rt shakldagi „mulki devoniy“ - davlat yerlari, „mulk“ - xususiy yerlar, „mulki vaqf“ - madrasa va ibodatxonalar tasarrufidagi yerlar va nihoyat „jamoat“ yerlari bo'lgan. XV asrda Temuriylar davlati uzoq va yaqin qator qo'shni mamlakatlar: Xitoy, Hindiston, Tibet, Eron, Rossiya, Volga bo'yi va Sibir bilan muntazam savdo sotiq qilardi.[5]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda turkiy xalqlarning ilm fan, madaniyati va san'ati sohalarida jahon sivilizatsiyasiga ko'shgan hissalarini Amir Temur asos solgan Temuriylar davlati bilan bevosita bog'liq. Temur shaxsi, uning davlatchilik tarixini butun murakkabliklari bilan haqqoniy talqin etish kerak bo'lgan yangi zamondamiz. Sohibquron shaxsiyati buyuk, ayni paytda ziddiyatlidir. Amir Temur shaxsiyati ko'p qirrali bo'lib, uning har bir qirrasini maxsus mavzu sifatida alohida - alohidadir. Sohibquron jahon xalqlari tarixida katta iz qoldirgan buyuk siymodir. Biz ba'zi manbalardagi Amir Temur haqidagi ma'lumotlarni yig'ib birlashtirib, tahlil qilishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.H. Murtazoyeva, A.A. Odilov, A.A. Ermetov, K.D. Soipova O'zbekiston tarixi

Toshkent 2020 .B.334

2.Z.Saidboboyev Tarixiy geografiya va kartografiya Toshkent 2020.B. 88

3.R.H.Murtazoyeva, A.A.Odilov, A.A.Ermetov, K.D.Soipova O'zbekiston tarixi
Toshkent 2020.B 344

4.Z.Saidboboyev Tarixiy geografiya va kartografiya Toshkent 2020.B 90

5.Z.Saidboboyev Tarixiy geografiya va kartografiya Toshkent 2020 .B 92-93